Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
PEDAGOGIKA

LINGVISTIK MARKAZLASHGAN YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI NUTQINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI

Nafosat Ilhomovna Ilhomova*
Qarshi davlat universiteti doktarantura talabasi
✉ nafosatilhomova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tili ta'limini tashkil etish jarayonida lingvistik markazlashgan yondashuvga tayangan holda o'quvchilarning og'zaki nutqini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslarini chuqur tadqiq etishga bag'ishlangan. Bugungi kunda globolashuv va axborotlashuv sharoitida yosh avlodning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularni erkin, mantiqiy va ta'sirchan muloqotga o'rgatish ta'lim oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.Tadqiqot doirasida zamonaviy lingvodidaktika, psixolingvistika va pedagogika fanlari yutuqlaridan foydalanilgan holda, o'quvchilarning og'zaki muloqot malakalarini shakllantirish jarayonini optimallashtiruvchi tamoyillar tizimi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Xususan, til va nutq birliklarini funksional jihatdan o'zlashtirish, leksik-grammatik bazani bosqichma-bosqich boyitish, fonetik va intonatsion me'yorlarga amal qilish hamda nutqiy vaziyatlarni modellashtirish kabi muhim metodik prinsiplar atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada o'quvchilarning og'zaki nutqida uchraydigan tipik xatoliklarning oldini olish, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlari va nutqiy faolligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ilmiy ishda ilgari surilgan g'oyalar va keltirilgan xulosalar ona tili darslarining samaradorligini yanada oshirishga, o'quvchilarning og'zaki nutq madaniyatini yuksaltirishga hamda darslik va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

Lingvistik markazlashgan yondashuv, og'zaki nutq, kommunikativ kompetensiya, metodik tamoyillar, lingvodidaktika, nutqiy faoliyat, leksik-grammatik baza, muloqot madaniyati, nutqiy ko'nikma, funksional yondashuv, nutqiy vaziyat.

DOI: 10.5281/zenodo.21743734

KIRISH

Hozirgi kunda O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy raqobatbardosh kadrlar qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi, axborotlar oqimining keskin ortishi va globolashuv jarayonlari insonning muloqot madaniyatiga, xususan, og'zaki nutq kompetensiyasiga bo'lgan talablarni tubdan o'zgartirib yubordi. Ona tili ta'limining bosh maqsadlaridan biri -o'quvchilarning og'zaki va yozma adabiy til me'yorlariga to'la amal qilgan holda, o'z fikrini og'zaki shaklda ravon, mantiqiy va ta'sirchan bayon eta olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutqini takomillashtirish masalasi ko'plab pedagogik va metodik izlanishlarning markazida turibdi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining og'zaki nutqida leksik cheklanganlik, grammatik qurilishdagi xatolar, fikrni izchil bayon eta olmaslik holatlari uchrab turibdi. Bu esa an'anaviy ta'lim usullari bilan bir qatorda, zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlarga, jumladan, lingvistik markazlashgan yondashuvga tayangan holda o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish tamoyillarini qayta ko'rib chiqish va ularning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Lingvistik markazlashgan yondashuv til tizimining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, til birliklarini (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) o‘zaro tizimli va uzviy aloqadorlikda o‘qitishga qaratilgan bo‘lib, u o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini ilmiy asosda boshqarish imkonini beradi. Shu boisdan ham, “Lingvistik markazlashgan yondashuv asosida o‘quvchilar og‘zaki nutqini takomillashtirish tamoyillari”ni tadqiq etish bugungi kun lingvodidaktikasining eng dolzarb nazariy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot muammosining o‘rganilganlik darajasi. Ona tili ta'limida o‘quvchilar nutqini rivojlantirish muammolari respublikamiz va xorijiy olimlar ishlarida keng yoritilgan. Jumladan, o‘zbek tilshunosligi va metodikasida Sh.Shoabdurahmonov, M.Asqarova, A.G‘ulomov, B.Mengliyev, Q.Yuldoshev, H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, N.Mahmudov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida til tizimi, nutq madaniyati va nutqiy faoliyatni o‘qitish masalalari atroflicha tadqiq etilgan.

Shuningdek, rus va xorijiy lingvodidaktikada L.S.Vigotskiy, A.A.Leontsev, A.R.Luriya, N.I.Zimnyaya kabi olimlarning psixolingvistik qarashlarida og‘zaki nutqning shakllanish mexanizmlari ochib berilgan. Biroq, mavjud ilmiy adabiyotlarda “lingvistik markazlashgan yondashuv” doirasida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini takomillashtiruvchi maxsus tamoyillar tizimi alohida va yaxlit holda chuqur maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan.

Tadqiqotning maqsadi lingvistik markazlashgan yondashuv asosida umumiy o‘rta ta'lim maktablari o‘quvchilarining og‘zaki nutqini takomillashtirishning nazariy-metodik tamoyillarini ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish yuzasidan ilmiy-metodiy tavsiyalar berishdan iborat.



1-chizma. Tadqiqot ishining vazifalari

Tadqiqot obyekti esa umumiy o‘rta ta'lim maktablarida ona tili o‘qitish jarayoni, jumladan, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy faoliyat hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti bu lingvistik markazlashgan yondashuv asosida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini takomillashtirish tamoyillari, ularning mazmuni, shakl, metod va vositalari majmui.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning mantiqiy, tarixiy va qiyosiy tahlil, kuzatish, suhbat, anketa-so‘rov, pedagogik tajriba-sinov, statistika-matematik tahlil va modellashtirish kabi metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati uning natijalari ona tili o‘qitish metodikasi fanining lingvodidaktik bazasini yangi nazariy xulosalar bilan boyitishida namoyon bo‘ladi. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan tamoyillar va tavsiyalardan umumiy o‘rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar yaratishda, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlarida ”Ona tili o‘qitish metodikasi” fanini o‘qitishda foydalanish mumkinligidadir.

Ma’lumki, har qanday ilmiy tadqiqotning nazariy poydevori mavzu bo‘yicha oldingi olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy-nazariy qarashlar, ilmiy maktablar va metodik yondashuvlarni chuqur tahlil qilishga asoslanadi. «Lingvistik markazlashgan yondashuv asosida o‘quvchilar og‘zaki nutqini takomillashtirish tamoyillari» mavzusini tadqiq etishda bir qator turdosh fanlar — tilshunoslik, lingvodidaktika, psixologiya va pedagogika yo‘nalishlaridagi ilmiy manbalarga tayaniladi.

Tilshunoslikda til va uning namoyon bo‘lish shakli bo‘lgan nutq o‘zaro uzviy birlikda o‘rganiladi. Klassik tilshunoslikda F.de Sossyurning “til va nutq” dixotomiyasi bu ikki tushunchaning o‘zaro farqlari bilan birga chambarchas bog‘liqligini ham ko‘rsatib bergan. O‘zbek tilshunosligida bu masalaga oid ilmiy qarashlar Sh.Shoabdurahmonov, A.G‘ulomov, H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev kabi olimlarning asarlarida keng yoritilgan. Jumladan, akademik H.Ne'matov va uning ilmiy maktabi vakillari til tizimining ichki imkoniyatlari, til birliklarining sathiy tuzilishi va ularning funksional vazifalarini ochib berishga alohida e'tibor qaratganlar.

Ona tili ta'limi metodikasida esa til birliklarini (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) tizimli o‘zlashtirish orqaligina o‘quvchilar nutqini rivojlantirish mumkin degan g‘oya ustuvor hisoblanadi. A.G‘ulomov, M.Qodirov, Q.Qosimova kabi metodist olimlarning asarlarida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishda leksik boylikni oshirish va grammatik qoliplarni puxta egallash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

”Lingvistik markazlashgan yondashuv” (linguistically centralized approach) tushunchasi ta’lim jarayonida tilning o‘z ichki qonuniyatlari, tizimli xususiyatlari va funksional imkoniyatlariga tayanishni talab qiladi. Zamonaviy lingvodidaktikada bu yondashuv o‘quvchilarga chetdan sun'iy qoliplarni yodlatish emas, balki til sathlarining o‘zaro aloqadorligini anglagan holda ongli nutqiy faoliyatni shakllantirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Xorijiy metodikada (masalan, rus lingvodidaktikasida A.V.Tekuchev, M.T.Baranov, V.I.Kapinos kabi olimlarning ishlarida) nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda til nazariyasiga tayanish tamoyili keng tadqiq qilingan. Ularning fikricha, o‘quvchi til birliklarining qurilishini va vazifasini qanchalik chuqur anglansa, uning og‘zaki nutqi shunchalik izchil, boy va savodli bo‘ladi. Biroq, turkiy tillar, jumladan o‘zbek tili agglutinativ tabiatidan kelib chiqqan holda, lingvistik markazlashgan yondashuv asosida og‘zaki nutqni shakllantirish tamoyillarini alohida tizim sifatida ishlab chiqish masalasi yetarli darajada monografik darajada o‘rganilmagan bo‘lib qolmoqda.

Og‘zaki nutqning paydo bo‘lishi, uning ichki nutqdan tashqi nutqqa o‘tish mexanizmlari psixolingvistikaning asosiy muammolaridan biridir. L.S.Vigotskiy, A.A.Leontsev, A.R.Luriya, N.I.Zimnyayalar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida nutqiy faoliyatning motivatsion, rejalashtirish va amalga oshirish bosqichlarini chuqur tahlil qilganlar. A.A.Leontsevning nutqiy faoliyat nazariyasiga ko‘ra, har qanday og‘zaki muloqot muayyan nutqiy niyat (motiv) va vaziyatdan kelib chiqib shakllanadi. Pedagogik nuqtai nazardan esa, o‘quvchilarning og‘zaki muloqot madaniyatini oshirishda interfaol metodlar, nutqiy vaziyatlarni modellashtirish va muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari O‘zbekiston olimlaridan M.Mahmudov, U.Qoraboyev, N.Azizxo‘jayeva va boshqalarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Mavzu doirasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, garchi tilshunoslikda til tizimi va metodikada nutqni o‘stirish masalalari alohida-alohida chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni lingvistik markazlashgan yondashuv doirasida uyg‘unlashtirib, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini takomillashtiruvchi yaxlit tamoyillar tizimini yaratish ehtiyoji saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga, mavjud nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda maktab o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishning zamonaviy metodik tamoyillarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot ishi “Lingvistik markazlashgan yondashuv asosida o‘quvchilar og‘zaki nutqini takomillashtirish tamoyillari” mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida ayrim umumiy ilmiy xulosalarga kelindi. Xususan, O‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish jarayoni faqatgina tasodifiy muloqotlar yig‘indisi emas, balki u chuqur lingvodidaktik va psixolingvistik qonuniyatlarga asoslangan tizimli faoliyat ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Lingvistik markazlashgan yondashuv til tizimining ichki imkoniyatlari (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlar) va ularning funksional vazifalariga tayanib, o‘quvchilarning ongli nutqiy faoliyatini boshqarishda yetakchi metodik poydevor bo‘lib xizmat qilishi isbotlandi.

Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini takomillashtirishga yo‘naltirilgan yangi metodik tamoyillar majmui ishlab chiqildi. Jumladan, til birliklarini funksional-sistematik o‘zlashtirish, leksik-grammatik bazani bosqichma-bosqich boyitish, nutqiy vaziyatlarni modellashtirish hamda adabiy talaffuz va intonatsion me'yorlarga qat'iy amal qilish tamoyillari o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligi aniqlandi. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining amaldagi ona tili darsliklari va o‘quv dasturlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, darslarda yozma nutqqa nisbatan og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan lingvistik asoslangan topshiriqlar yetarli emas. Taklif etilgan tamoyillar va ularga asoslangan lingvodidaktik topshiriqlar tizimi o‘quvchilarning og‘zaki nutqida uchraydigan tipik xatoliklarning oldini olishga, ularning mantiqiy, ravon va erkin fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga yordam berishi tajriba-sinov jarayonida o‘z tasdiqini topdi.

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ona tili ta'limi sifatini oshirishga, o‘quvchilarning og‘zaki muloqot madaniyatini yuksaltirishga hamda kelgusida mazkur yo‘nalishda yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. G‘ulomov A., Qodirov M. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 206 b.
3. Ne'matov H., Boqiyev R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Fonetika, grafika, leksikologiya). – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 132 b.
4. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 416 b.
5. Mengliyev B. O‘zbek tili grammatikasi (morfologiya va sintaksis bo‘yicha nazariy asoslar). – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 384 b.
6. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomov X., Yo‘ldosheva Sh., Sariboyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009. – 352 b.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 232 b.
8. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – Москва: Просвещение, 2001. – 214 с.
9. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 352 с.
10. Текучев А.В. Методика русского языка в средней школе. – Москва: Просвещение, 1980. – 414 с.
11. Qurbonova M. O‘zbek muloqot lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Universitet, 2018. – 160 b.
12. Yo‘ldoshev Q. Adabiy tanqid va talqin. – Toshkent: Sharq, 2019. – 272 b.